

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР  
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ  
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН  
АКАДЕМИЯСИ  
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

**2024-2/4**

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна  
Издается с 2006 года**

**Хива-2024**

**МУНДАРИЖА**  
**ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

<b>Abdullayeva N.B.</b> Role of tone phonetic means in chinese phonetics and their intercompatibility	6
<b>Abdullayeva X.N.</b> Ingliz va o'zbek sehrli ertaklarida g'aroyib tug'ilish motivi talqini	9
<b>Adizova O.I.</b> Bolalar nutqini o'stirishda tez aytishlarning o'rni	13
<b>Alihonova M.</b> Pragmalinguistic analysis in research	16
<b>Allaberganova A.A.</b> "Devoni mutrib xonaxarob" lingvopoetik tadqiqot obyekti sifatida	18
<b>Ashirmatova M.J.</b> Qishloq xo'jaligi terminlarining leksikografik jihatdan moslashtirish	21
<b>Axmedova M.</b> Ogahiyning "riyozu-davla" asari onomastik birliklari tarixiy-etimologik tahlilining ba'zi masalalari	23
<b>Azatova N.A., Ibodullayeva D.</b> Jahon tilshunosligida etnografizmlarning o'rganilish masalasi	26
<b>Bahromov J.</b> O'zbek va ingliz tillari frazeologik birliklarining etimologik va madaniy xususiyatlari	28
<b>Bekmurodova M.J.</b> Comparative study of gerund, infinitive and participles in english and its equivalents in uzbek	32
<b>Boltaqulova G.F.</b> Phraseological units representing time in english and uzbek languages	35
<b>Bo'riyeva N. J. R. R.</b> Tolkinning "Uzuklar hukmdori" asarida sehr-jodu kontsepti	38
<b>Buronova X.T.</b> O'zbek tili tibbiy terminlarining miqdoriy leksikografik qiyosi	42
<b>Dadabayeva F.</b> "O'tkan kunlar" nemischa tarjimasini mutarjim Barno Oripova talqinida	45
<b>Elov B.B., Alayev R.H., Xusainova Z.Yu., Yodgorov U.S.</b> CBOW neyron tarmoqlari vositasida o'zbek tili so'zlarini bashoratlash	48
<b>Eshmurodov M.</b> Bayoniy tarixiy asarlarining lingvistik xususiyatlari	57
<b>Eshniyazova M.B.</b> Alisher Navoi's "Mahbub ul-qulub" – last work on the basis of the experiences, observations and conclusions	61
<b>Farmonova U.</b> "Qisasi Rabg'uziy" asarida shaxsning ruhiy holati va diniy tushunchalar doirasida shakllangan frazeologizmlar	64
<b>Inoyatova D.I.</b> Xunuklikning tilda leksik va grammatik o'ziga xoslikda verballashuvi	67
<b>Isarov O.R.</b> The linguistic essence of taxis phenomenon	69
<b>Haydarov A.A., Sattorova Sh.</b> Fonografik uslubiy vositalar haqida mulohazalar	72
<b>Haydarov A., Tosheva F.</b> Learning and linguistic foundations of modality category	76
<b>Kaxxarova Sh.Sh.</b> Joy nomlari bilan bog'liq leksik birliklarning lingvomadaniy tahlili	79
<b>Kenzhebeyeva R.S.</b> Theme of Katep in R. Ayapbergenov's poetry	82
<b>Khamidova S.B.</b> Linguistic and aphoristic description of paradoxical text concepts	85
<b>Khamrakulova R.A.</b> Analysing english diplomatic discourse and notable speeches of diplomats	88
<b>Kurbonmurodov A.A.</b> Ekstremistik matnning til xususiyatlari	91
<b>Kurbonova G.I., Jalolova L.Sh.</b> Akutagava Ryunosukening "O'rgimchak uyasining tolasi" va Xans-Xaynts Eversning "O'rgimchak" asarlarida "o'rgimchak" konseptining tipologik tahlili	93
<b>Lolayeva G.G.</b> Metafora va uning gazeta matnidagi lingvostilistik vazifalari	98
<b>Maxmudov R., Masharipova R.</b> Fransuz va o'zbek xalq iboralaridagi zoonimlarning funksiyalari	101
<b>Mahmudova N.R.</b> The use of linguistic gradation at the phonological level in english and uzbek	105
<b>Maxmudov R., Davletova L.</b> Fransuz va o'zbek tillaridagi ayrim geografik terminlarning leksik-semantik xususiyatlari	109
<b>Maxmudov R., Ibadullayev B.</b> O'rxun-Enasoy va Uyg'ur yozuvi manbalaridagi tarixiy antroponimlar	113
<b>Marupova G.U.</b> Linguistic features of sport tourism	117

significant time interval between them: *Having acquired those special skills in his childhood, he didn't lose them even in the declining years.*

2. Homogeneity of actions in terms of their specificity or generalization (usuality, commonness, typicality).

The second necessary feature of taxis relations is that actions must be homogeneous in terms of their specificity/generalization (usuality, commonness, typicality). All actions associated with a taxis relationship should be, according to Bondarko, either specific or ordinary, typical. At the same time, complex sentences with subordinate explanatory clauses by A.V. Bondarko brings the fields of independent taxis to the periphery.

3. The framework of a statement equal to a sentence or a super-phrasal unity (SPU), i.e. polypredicative complex.

A polypredicative complex in functional grammar is considered to be: a) a combination of main and secondary (secondary) predication in constructions with gerunds (as well as with participles; we are talking about all constructions that include main and secondary predication); b) different types of polypredication in complex sentences and sentences with homogeneous predicates; the concept of polypredication also extends to statements that are super-phrasal units [Theory of functional grammar: Introduction. Aspectuality. Temporal localization. Taxis. 2001. - P. 234-295].

**Conclusion.** Thus, taxis relations characterize not one form, but a combination of forms, i.e., the taxis expression is associated with syntactic constructions (including morphological as well as lexical means). The taxis function has not only paradigmatic, but also pronounced syntagmatic features, and in its formal expression is basically syntactic. This category characterizes the entire proposition as a whole, so the possibility of its realization does not depend on the semantics of its constituent elements. This is the category of the sentence as a whole, and not just of the predicate verb.

#### REFERENCES:

1. Бондарко А.В. Функциональная грамматика. - Л.: Наука, 1984. - 136 с.
2. Вьяльсова А.П. Типы таксисных отношений в современном русском языке: на материале причастных конструкций: Автореф. дис. канд. филол. наук (10.02.01). - Москва, 2008. - 28 с.
3. Дедова В.О., Овчинникова И.Г. Зависимый таксис: семантические особенности и способы выражения (на материале словацкого языка). - Вестник Пермского Университета, 2009. - Вып. 3.
4. Золотова Г.А., Онипенко Н.К., Сидорова М.Ю. Коммуникативная грамматика русского языка. - М., 1998.
5. Теория функциональной грамматики: Введение. Аспектуальность. Временная локализованность. Таксис / Ред. А.В. Бондарко (отв. ред.) и др. 2. изд., стер. - М.: УРСС, 2001. - С. 234-295.
6. Якобсон Р.О. Шифтеры, глагольные категории и рус. глагол, пер. с англ., в кн.: Принципы типологического анализа языков различного строя. - М., 1972.
7. Исаров О. Таксис категориал холатлари ва таксис ифодаловчи феъл комбинациялари // Вестник Каракалпакского государственного университета имени Бердаха. – 2011. – Т. 13. – №. 3-4. – С. 117-118.
8. Isarov O.R. Comparative study of the conceptions related to the category of taxis. Journal of Critical Reviews. ISSN-2394-5125. Vol. 7, Issue 12, 2020. DOI: <http://dx.doi.org/10.31838/jcr.07.12.27>

UO'K 808.3

#### FONOGRAFIK USLUBIY VOSITALAR HAQIDA MULOHAZALAR

*A.A.Haydarov, prof., f.f.n., Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro*  
*Sh.Sattorova, magistrant, Buxoro Davlat Universiteti. Buxoro*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida grafostilistik vositalar, ularda ifodalangan konnotativ ma'nolar haqida fikr yuritilgan. Nasriy va nazmiy asarlardan olingan misollar asosida ingliz va o'zbek tillaridagi grafik uslubiy vositalar ikki til asosida tahlil qilingan. Shuningdek, turli tinish belgilari asosida yuzaga keladigan grafik uslubiy vositalarga ham e'tibor qaratilgan.*

**Kalit so'zlar:** *fonostilistika, konnotatsiya, grafik stilistika, fonografiya, kursiv, bosh harflar, ko'p nuqta, badiiy matn, punktuatsiya.*

**Аннотация.** *В статье рассматриваются графические стилистические приемы английского и узбекского языков, коннотативные значения, выраженные в них. Графические стилистические приемы на английском и узбекском языках были проанализированы на*

основе примеров из поэзии и прозы на обоих языках. Также обращено внимание на то, что графические стилистические приёмы представлены различными знаками препинания.

**Ключевые слова:** фоностилистика, коннотация, графическая стилистика, фонография, курсив, заглавные буквы, многоточие, художественный текст, пунктуация.

**Abstract.** This article discussed graphic stylistic devices in the English and Uzbek languages, the connotational meanings expressed in them. Graphic-stylistic devices in English and Uzbek have been analyzed on the basis of examples from poetic and prose works in both languages. Attention is also paid to the fact that graphic stylistic devices are represented by various punctuation marks.

**Keywords:** phonostylistics, connotation, graphical stylistics, phonography, italics, capital letters, colon, literary text, punctuation.

Zamonaviy tilshunoslikda grafik uslubiy vositalarning mazmun-mohiyati va uslubiy xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Grafik uslubiyat ekspressiv vositalarning og'zaki nutqda intonatsiya va urg'u orqali ifodalangan hissiyotlarni yozma shaklda ifodalashdan iborat. Badiiy adabiyotda grafostilistik vositalardan foydalanish muallif strategiyasining imkoniyatlarini namoyish etishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun muallif badiiy asar matnlarida ishlatadigan turli fonografik usullarni ketma-ket ko'rib chiqadi. Ingliz adabiyoti fonografik uslubiy vositalardan L.F.Baum, L.Keroll, A.A.Miln, D.Gerber, R.Dal o'zlarining klassik asarlarida keng foydalanganlar.

Dunyo tilshunosligida L.I.Yeremina tilda grafostilistik vositalarning keng qamrovli ekanligini qayd qilib, quyidagilarni yozadi: "Badiiy nutqda so'zlardagi unli va undosh harflarni qoidaga zid ravishda turli shakllarda yozish, bir o'rinda bir tinish belgisini birdan ortiq qo'llash, shuningdek, boshqa turli ishoraviy belgilardan foydalanish muhim uslubiy ahamiyatga egadir"[1].

O'zbek tilshunosligida fonografik uslubiy vositalar G. Yaxshiyevaning nomzodlik dissertatsiyasida atroflicha yoritilgan[2]. Fonografik uslubiyat, deb yozadi olim, talaffuzning uslubiy imkoniyat va xususiyatlarini yozma nutqda aks ettirish yo'l va usullarini, shuningdek, yozma nutqning grafik (imloviy) uslubiy imkoniyat va xususiyatlarini dialektik birlikda o'rganuvchi va o'rgatuvchi umumiy uslubiyatning bir bo'limidir[3]. Fonografik uslubiyat o'zining alohida olingan birligiga ega emas. U til fonetik va grafik vositalarning emotsional-ekpressiv bo'yog'ini berishga xizmat qiladi. Grafik uslubiyatda matnning tipologik xususiyatlariga, jumladan, punktuatsiya, joylashuviga e'tibor qaratiladi. Ushbu masalada xorijiy olimlar ham o'z fikr - mulohazalarini bayon etishgan.

Jumladan, Norgard tipografik xususiyatlar adabiyotidagi bosma og'zaki nutqning vizual jihatlarini, ma'naviy potensial imkoniyatlarini kashf etishga, o'rganishga yordam berish haqida o'z fikrini bildirsa, Lich esa grafik uslubiy vositalar butun yozuv tizimiga tegishlidir: punktuatsiya, abzats, va bo'sh joy deb ta'riflaydi. Bilol Chimalar esa grafik vositalar gapda tizim shakllanishi, tuzilishi va tinish belgilari bilan shug'ullanishni e'tirof etishadi. A.Hojiyev esa yozuv haqida so'z yuritib, "grafika(grekcha-grafike-yozma) nutq tovushlarining yozib ifodalash vositalarining muayyan sistemasi" deb ta'rif beradi[4]. Darhaqiqat, grafik o'zgarishlar nafaqat talaffuzning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi, balki urg'u berilgan so'zlarni ifodalash uchun ham ishlatiladi. Sof grafik vositalarga matn bo'laklarini abzats bilan yozish, harflarni bosh va kichik yozish, turli kattalikda yozilgan harflarni ishlatish, aytim so'z va matn bo'laklarini kursiv bilan yozish, she'riyatda misralarni pog'onalar yozish, she'r qatorlaridan birini tushurib qoldirish, uning o'rniga qator nuqtalar qo'yish, matnda turli tinish belgilaridan uslubiy maqsadda foydalanish kiradi. Grafik stilistik vositalardan eng samaralisi so'zlarni kursiv bilan yozishdir. Ko'pincha epigraf, prozaik asarlarning nomi, sitata, boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar kursiv bilan yoziladi va u o'sha so'zlarni muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Ingliz tilida esa asarlarda ishlatilgan yordamchi so'zlar, olmoshlar ko'p hollarda kursiv bilan yoziladi. Masalan: "Bella!"

- "Yes, Master Jon."

- "Do let's have tea under the oak tree when *they* come; I *know they'd* like it best."

"You mean *you'd* like it best."

Little Jon considered.

“No, *they would*, to please me.” (J. Galsworthy, “Awaking”)

Ko'makchi fe'llar *will* va *would* doimiy ish-harakatni ifodalashda ishlatilsa, ular urg'usiz keladi va odatdagiday yoziladi. Ammo urg'uli holatda ishlatilsa, ular kinoyani ifodalaydi hamda kursiv bilan yoziladi. Masalan: ... his liver was a little considered and his nerves rather on edge. His wife always out when she was in Town and his daughter *would* flibberty-gibbet all over the place. (J. Galsworthy. “Awaking”)

Ba'zan tasdiqni kuchaytirish maqsadida ham ko'makchi fe'llar kursiv bilan yoziladi. -Olwen (smiling at him affectionately).

You *are* a baby, Robert. (J.B.Priestley. “Dangerous corner”).

Yuqorida tasdiqlanganidek, boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar ham kursiv bilan yoziladi. Jumladan, quyidagi gapda fransuz tilidan kirib so'zlar kursiv bilan yozilgan: “*Bonjour la compagnie he said cheerfully. “I've brought you a present”*. (S. W. Maugham, *Stories*, “The Unconquered” p. 45). So'zlarni kursiv bilan yozish nafaqat nasriy asarlarda, balki she'riy asarlarda ham uchraydi. Tomas Stern Elliotning “A Cooking Egg” she'rida 30 yoshli qahramonning yoshlikka munosabati achchiq kinoya bilan ifodalangan. Xona tasviri Oksfordning ko'rinishini eslatadi.

Masalan, Pipit sate upright in her chair

Some distance from where I was sitting;

*Views of the Oxford Colleges*

Lay on the table, with the knitting.

(T.S. Elliot. “The Cooking Egg”)

Ushbu sohada fikr yuritganda poetizmlarga ham e'tibor qaratish lozim. “Badiiy nutqda ayrim poetizmlarning yozilishi turli grafik shakllarda ifodalanishi mumkin. Poetizm badiiy matnda har qanday nom emas, balki ijodkor badiiy niyatini yoritishga xizmat qilgan nomdir”[5].

Grafik vositalar asosan, punktuatsiyada ishlatilishi bilan xarakterlanadi. Punktuatsiya asosan muallif va so'zlovchi munosabatini ifodalashda ishlatiladi hamda emotiv xarakterni ko'rsatadi. Tinish belgilari nutqni ritmik melodik jihatdan yoritadi. Tinish belgilarining uslubiy xususiyatlari haqida ayrim ma'lumotlar K. Nazarov tomonidan qayd qilingan. Uning fikricha, bir xil tinish belgilarining kema-ket bir o'rinda qo'sh holatda qo'llanilishi gap mazmuniga qo'shimcha yangi mazmun yuklanishini ko'rsatadi[6]. So'roq va undov belgilari, asosan, gap oxirida qo'yilib, muhim uslubiy vazifa bajaradi.

Masalan, George: (savagely) That's good! Oh, yes! And what about you?

Ruth: (off her balance) What about me?

George: What are you doing here? All right, you've had your go at home. But what about yourself?

Ruth: Well?

George: Oh, don't be so innocent, Ruth. This house! This room! This hideous! Good awful room!

Ayrim matnlarda barcha so'zlar bosh harflar bilan yoziladi. Bunda so'zlar kuchli his-hayajon bilan, to'lqinlanib aytilishi ko'riladi[7].

“WILL YOU BE QUIET” he fawled. (A. Sillitoe. “The key to the door”)

“HELP, HELP, HELP” (A. Hurley)

“HOW DISGUSTING!” (J. Galsworthy)

Ushbu usuldan foydalanishda nafaqat so'zlarni bosh harf bilan yozish, balki muallifning tovush tonining ko'tarilishi bilan ham izohlash mumkin.

O'zbek tilining ayrim janrlarida yozilgan asarlarda ham grafostilemalardan biri bo'lgan bosh (katta) harflar bilan yozilgan so'z va iboralarni uchratishingiz mumkin. Ular asosan, tasvirda kitobxon diqqatini tortish, turli his-hayajonlarni uyg'otish uchun xizmat qiladi.

Masalan: Chizgim keldi MAYSANING rasmin,

Yozib qo'ydim BAHOR deb asta.

Men jo etdim ONA nomiga,

Endi ONA so'zi yoniga

Dadil yozib qo'yaman: DUNYO!

(O. Matchon “Seni yaxshi ko’raman” to’plamidan)

Badiiy asarlarda ayrim soʻz va iboralarni qoʻshirnoqqa olib yozish ham uslubiy vazifa bajarishi bilan birga, koʻchma va vulgar maʼnoli soʻzlar aks ettirishini koʻrsatadi. Shu bilan birga qoʻshirnoq belgisi soʻzlovchiga aniq va qatʼiy tegishli boʻlgan soʻz yoki gapni koʻrsatish uchun ishlatiladi.

Masalan, “I can’t do it”, said Henry.

Har ikkala chogʻishtirilayotgan ingliz va oʻzbek tillarida qoʻshirnoqning eng muhim funksional-uslubiy vazifalaridan biri turli xil atamalarni ajratib koʻrsatishdir. *Qavs* grafostilistik vosita sifatida chet tillaridan oʻrganilgan ayrim ilmiy terminlarni izohlash, ularning etimologiyasini berish, maʼnodosh soʻzlarni berish, gapda kiritma soʻzlarni yozish, ayrim qoʻshimcha maʼlumotlarni yetkazish va boshqa maqsadlar uchun ishlatiladi.

Masalan: aksent (lot. accentus-urgʻu).

Onam(oʻgay) har doim qiynagani-qiynagan (Oʻ. Hoshimov).

Ingliz va oʻzbek tillarida soʻz va matn, ularning ayrim qismlari ustiga, ostiga, oldiga, oxiriga turli xil shartli belgilar: havola (1,7,14), yulduzcha (\*), drob (/, //), paragraph (§), uchburchak(Δ), urgʻu(˘), apostrof(ʼ)larni qoʻyib, ularni ajratib yozish shular jumlasidandir. *Yulduzcha shakli*. Adiblar oʻz asarlaridagi ayrim soʻzlar ustiga yulduzcha (\*) belgisini qoʻyib yozishadi, maqsad shu soʻzning toʻliq shakliga izoh-sharh berilganligini koʻrsatishdir. Quyidagi sheʼriy misrada shu holatni yaqqol koʻrish mumkin:

Then down to the dust—with titled lust,  
And down with the gold king vile,  
For the world shall see—that we will be free,  
And free be the sister-isle.\* (Isle-Ireland)

(E.Ch.Jones. “A song for the people”)

Matnda ayrim soʻzlarni chiziqcha- chiziqcha bilan yozish ham grafostilistik vazifa bajaradi. Masalan, He was like a chim-pan-zee. Marge says, “Isn’t he the best-looking thing, aunt Eunice?”. While my back is turned. Eunice says, “You sure must be picked the runt of the littles.” Why, this isn’t any sort of man at all... Very in-ter-esting’ was Hammurabi’s comment as he gave appeased quiet glance.

Yuqoridagi misollarda kiritilgan soʻzlarning ayrimlari chiziqcha bilan yozilganligi qator konnotativ maʼnolarni ifodalaydi. Ular: soxtalik, yuzakilik, nopisandlilik kabilar. Ayrim soʻzlarda birdan ortiq bir xil tovushlarni koʻpaytirib yozishda ham chiziqchalardan foydalaniladi. Masalan, He missed our father very much. He was s-l-a-i-n in North Africa. (J.D.Salinger)

Soʻz va iboralarni chiziqchalar bilan yozish ingliz va oʻzbek tillarida personaj nutqida ham, avtor nutqida ham uchraydi va ular uslubiy boʻyoqdorlikni ifodalaydi.

Emotsionallikni ifodalashda *koʻp nuqta* ham uslubiy vazifa bajaradi.

Masalan, That’s to say...you...understand...the dark...the strain...waiting...I confess...I imagined...for a second...

Yuqoridagi misolda koʻp nuqtaning ishlatilishi soʻzlovchi pauzasining grafik jihatdan berilishini taʼminlaydi, bu bilan uning ichki hissiyoti, shaxsiy munosabati, nutqning uzilib, oʻylab bayon qilinishini ifodalashga xizmat qiladi.

Havola (ing. reference) belgisi har ikkala tildagi matnlarda ham grafostilistik vosita sifatida nutq uslublariga koʻra farqlanib ishlatiladi. Havolalarda ilmiy uslubdagi matnlarda bayon qilina-yotgan fikrlarning haqqoniyligini tasdiqlashini inkor qilish maqsadida qaysi manbadan olinganligini qayd qilish uchun foydalaniladi.

Badiiy matnlarda esa biror bir soʻz yoki iboraning koʻchma maʼnosini izohlashda ishlatiladi. Hozirgi davr ilmiy matnlarida, dissertatsiyalarda havola belgisidan foydalanish ikki koʻrinishda ishlatiladi.

a) Matn sahifasining oʻzida ilmiy havola muallif yoki asar nomi 1,2,3,4...raqamlarini keltirish bilan va bu raqamlarni shu sahifaning pastki qismida yozish va manbaning toʻliq nomini aks ettirish bilan amalga oshiriladi.



b) Ikkinchi xildagi havola va izoh talab etilgan joyda katta qavsda beriladi [1,17] shaklida yoziladi. Bunday havolalar grafik uslubiy jihatdan o'ziga xos jihatlarga ega bo'lib, matn mazmunini to'la anglashga yordam beradi.

Ayni zamonda ingliz va o'zbek tillaridagi yozma matnlarda havola belgisi o'rnida yulduzcha (\*) shaklini ham kuzatish mumkin.

Shunday qilib, grafik o'zgarishlar nafaqat talaffuzning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi, balki urg'u berilgan so'zlarni ta'kidlash, ta'kidning intensivligini ifodalash uchun ishlatiladi. Yuqorida ta'kidlangan so'zlarni kursiv bilan yozish, so'zlarni alohida bosh (katta) harflar bilan yozish, tinish belgilaridan foydalanish muhim uslubiy vazifa bajaradi. Boshqa tinish belgilari va abzats hamda tirening ishlatilishi bilan bog'liq grafik uslubiy vositalar haqida keyingi ishlarimizda fikr yuritimiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Еремина Л.И. Графика – как средство изобразительности в произведениях. Л.Н.Толстой Сб. статей. Очерки по стилистике художественной речи. – М: 1979. – С. 77-113.
2. Yaxshiyeva G. O'zbek tilida fonografik uslubiy vositalar. filologiya fanlari nomzodi diss.- T.1997.-132b.
3. Yaxshiyeva G. O'zbek tilida fonografik uslubiy vositalar. – T., "Fan" nashriyoti.1996.-36b.
4. A.Hojiyev. Lingvistik belgilarning izohli lug'ati, - T: 1985.- B.30.
5. Xudoyberganova., Andaniyazova D, O'zbek tili poetizmlarining izohli lug'ati.-T.: "Turon Zamin. Ziyο".2016,- B-46
6. Nazarov K. Tinish belgilari va yozma nutq.- T:Fan 1974.-B.61.
7. Norova M.F. Ingliz va o'zbek tillarida fonostilistik va grafostilistik vositalarning konnotativ ma'nolari. PhD dissertatsiyasi.-Buxoro, 2021.-B.114.

UDC 808.3

### LEARNING AND LINGUISTIC FOUNDATIONS OF MODALITY CATEGORY

*A. Haydarov, prof., Bukhara State University, Bukhara*  
*F.Tosheva, master student, Bukhara State University, Bukhara*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada modallik kategoriyasining lingvistik asoslari, uning rivojlanish jarayoni haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, modallik kategoriyasining madaniyat va til munosabatida tutgan o'rniga ham e'tibor qaratilgan.*

*Kalit so'zlar:* modallik, universal kategoriya, mantiq, madaniyat, kommunikatsiya, mayl, metatillik, lingvistik asos.

*Аннотация. В данной статье рассматриваются лингвистические основы категории модальности, ее история, процесс развития. Также уделяется внимание роли категориальной модальности во взаимоотношениях культуры и языка.*

*Ключевые слова:* модальность, универсальная категория, логика, культура, общение, тенденция, метаязык, языковая основа.

*Abstract. This article discusses the linguistic foundations of the category of modality, its development process. Moreover, attention is paid to the place of the category of modality in the relationship between culture and language.*

*Key words:* modality, universal category, logic, culture, communication, tendency, metalanguage, linguistic framework.

When we think about modality, we pay attention to the definitions given to this linguistic concept. While defining the category of modality, Charles Bally said, "modality is the heart, the heart of speech." It includes "various subtleties of judgment" in the composition of modal meanings. ', 'intuition' and 'desire'[1]. According to M.K. Halliday, "modality is an important functional feature of communication, a function between individuals, a form of expression of the speaker participating in the communication[2]. V. G. Gak bases the generalization of the relationship between the speaker and the informant on the type of modality. In his opinion, modality is divided into three stages: 1) declarative and performative according to the nature of reporting;

2) reliability and probability according to the nature of knowing reality;